



“TASDIQLAYMAN”
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o'rinnbosari

Z. Ziyayev

«28» iyul 2024-y.

INTERAKTIV XIZMATINING REGLEMENTI

TAQDIM ETILADIGAN HISOBOTLAR RO'YXATI

1. Xizmatning ta'rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati

1.2. Xizmat natijasi

Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati bo'yicha axborotlar olish.

1.3. Xizmat ko'rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tuman (shahar) statistika bo'limlari.

Statistika agentlarning rasmiy veb-sayti www.stat.uz.

1.4. Huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida” Qonuni

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Manfaatdor davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.6. So'rov berish muddatlari

So'rov berish muddati o'rnatilmagan.

1.7. Bajarilish muddati

Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga www.stat.uz murojaat qilinganda – kechayu kunduz.

1.8. Tasdiq berilish muddati

O'rnatilmagan.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarni habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati.

2.2. Keng miqyosda xabardor qilish

Taqdim etiladigan hisobotlar ro‘yxati bo‘yicha axborotlar Statistika agentligining rasmiy veb-saytining (www.stat.uz) “Interaktiv xizmatlar” bo‘limining “Taqdim etiladigan hisobotlar ro‘yxati” qismida (<https://module.stat.uz/search/hisobot/uz/users.php>) joylashgan.

2.3. So‘rov bo‘yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo‘yicha har qanday savol yuzasidan og‘zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiq emas).

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmatdan foydalanish bo‘yicha har qanday katta hajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og‘zaki maslahat (5 daqiqadan ortiq emas).

Faks orqali: 9-00 dan 18-00 gacha so‘rov bo‘yicha yozma hujjatlarni (3 varaqdan ortiq emas) qabul qilish va uzatish.

Elektron pochta orqali: har qanday yozma so‘rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, DOC, RTF, PDF formatlarida biriktirilgan fayl) yoki kelishilgan boshqa formatlarda kechayu kunduz qabul qilish, soat 9-00 dan 18-00 gacha oddiy matn formatida, DOC, RTF, PDF formatidagi biriktirilgan fayl ko‘rinishida yoki kelishilgan boshqa formatlarda yozma hujjatlarni uzatish.

Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga shaxsiy murojaat – kechayu kunduz.

2.4. Xizmat ko‘rsatish joyi haqida xabardor qilish

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug‘bek tumani, 100170, Mustaqillik shoh ko‘chasi 63.

2.5. Foydalilaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

O‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan jadval namunalari.

3. Xizmat ko‘rsatish

3.1. Ish vaqtি

Statistika agentligiga murojaat – kecha-kunduz;
Ish tartibi: ish kunlari 9-00 dan 18-00 gacha.

3.2. Kutish shartlari

O‘rnatilmagan.

4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

4.1. Shart bo‘lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko‘rsatilish bosqichlari

Taqdim etiladigan hisobotlar ro‘yxati to‘g‘risida axborot olish uchun, www.stat.uz saytiga kirish lozim. Asosiy menyuning “Interaktiv xizmatlar” bo‘limidan “Taqdim etiladigan hisobotlar ro‘yxati” qismini (<https://module.stat.uz/search/hisobot/uz/users.php>) tanlash kerak.

4.4. Interaktiv xizmatini ko‘rsatishda idoraviy ichki tartiblar

1. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi o‘rnatilgan tartibda hisobot shakllarini tasdiqlatadi hamda tasdiqlangan hisobot shakllari Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.
2. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan hisobot shakllari Statistika agentligining www.stat.uz veb-saytida joylashtiriladi.

4.5. Rad etish asosi

O‘rnatilmagan.

5. Sifat ta’minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun o‘rnatilgan tartibga to‘liq javob beradi.

5.2. Xizmat sifati ustidan shikoyat qilish tartibi

Statistika organlariga belgilangan tartibda yozma murojaat qilish yoki Statistika agentligining rasmiy veb-saytidagi qarshi aloqa shakli orqali shikoyat bildirish mumkin.

**5.3. Taqdim etiladigan hisobotlar ro‘yxati bo‘yicha
axborotlar olish interaktiv xizmatni ko‘rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (<i>yuridik yoki jismoniy shaxs</i>)	Statistika agentligining rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) kiradi.	O‘z xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Murojaatchi (<i>yuridik yoki jismoniy shaxs</i>)	“Interaktiv xizmatlar” bo‘limining “Taqdim etiladigan hisobotlar ro‘yxati” qismini tanlaydi. Tanlovdan so‘ng https://module.stat.uz/search/hisobot/uz/users.php “Hisobot shakllari” sahifasiga o‘tiladi.	O‘z xohishiga ko‘ra
3-bosqich	Murojaatchi (<i>yuridik yoki jismoniy shaxs</i>)	Hisobot taqdim etuvchining STIR raqami hamda rasmdagi kod kiritiladi.	O‘z xohishiga ko‘ra
4-bosqich	Statistika agentligi	STIR raqami asosida taqdim etilishi kerak bo‘lgan statistika hisoboti shakllari ro‘yxatini ekranda ko‘rsatadi.	Avtomatik tarzda
5-bosqich	Murojaatchi (<i>yuridik yoki jismoniy shaxs</i>)	Ro‘yxat bilan tanishadi va undan foydalanadi yoki uni o‘z qurilmasiga saqlab oladi.	O‘z xohishiga ko‘ra



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**




Orqaga qaytish

Tadbirkorlar uchun: hisobot.stat.uz ga o’tish

Hisobot shakllari

STIR:

Agar tushunarsiz bo‘lsa, rasmni bosing:



Rasmdagi kodini kriting

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2024 y.